

“TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ROMANIDAGI KO‘CHMA MA’NOLI
SO‘ZLAR XUSUSIDA

Yo‘lchiyeva Odina Alisher qizi

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o‘quvchisi

Xaitov Xusniddin Xasanovich

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o‘qituvchisi

Maxammadiyeva Dildora Baxtiyorovna

Guliston shahar 18-sonli DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Maqolada yozuvchi O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” asarida ko‘chma ma’no va uning vositalari, asosan, metaforaning qo‘llanilishi tahlil qilingan. Romandagi ko‘chma ma’noli so‘zlar yozuvchining badiiy mahoratini hamda asarning ma’naviy ruhiyatini ochib berishdagi o‘rniga baho berilgan. Qahramonlarning ichki kechinmalarini, zamon va jamiyat ziddiyatlarini o‘zida namoyon etishidagi metaforik tasvirlarga munosabat bildirilgan.

Kalit so‘z: ko‘chma ma’no, ko‘chma ma’no vositalari, metafora, metonimiya, sinekdoxa, asar, badiiy tahlil, obraz, voqea, so‘z mahorati.

О ПЕРЕНОСНЫХ ЗНАЧЕНИЯХ СЛОВ В РОМАНЕ «ЖИЗНИ, ПРОЖИТЫЕ ВО СНЕ»

Аннотация: В статье проанализировано употребление переносного значения и его средств, в основном метафоры, в произведении писателя Уткира Хошимова «Жизни, прожитые во сне». Переносные значения слов в романе оцениваются с точки зрения художественного мастерства автора и их роли в раскрытии духовно-нравственной атмосферы произведения. Также выражено отношение к метафорическим образам, через которые передаются внутренние переживания героев, противоречия времени и общества.

Ключевые слова: переносное значение, средства переносного значения, метафора, метонимия, синекдоха, произведение, художественный анализ, образ, событие, словесное мастерство.

ON THE FIGURATIVE MEANINGS OF WORDS IN THE NOVEL “LIVES LIVED IN A DREAM”

Abstract: The article analyzes the use of figurative meaning and its devices, primarily metaphor, in the literary work “Lives Lived in a Dream” by the writer O‘tkir Hoshimov. The figurative meanings of words in the novel are evaluated in terms of the author’s artistic mastery and their role in revealing the spiritual and moral atmosphere of the work. The article also discusses metaphorical images that convey the characters’ inner experiences and the contradictions of the time and society.

Key words: *figurative meaning, figurative language devices, metaphor, metonymy, synecdoche, literary work, literary analysis, image, event verbal mastery.*

KIRISH (INTRODUCTION)

Yozuvchi O'tkir Hoshimovning xalqimizga xos urf-odatlarini, hayotini to'la aks ettira olgan "Tushda kechgan umrlar" romani ko'pchilik kitobxonlarning e'tiborini qozongan badiiy asarlardan biri deyishimiz mumkin, chunki muallif inson ruhiyati va hayotning murakkabliklarini aniq va badiiy mushohada bilan yoritadi hamda o'quvchini voqealar ortidagi ma'naviy-axloqiy mazmun ustida o'ylashga undaydi. Albatta, bu kabi holatlarda yozuvchi mahoratini ko'rish hamda asardagi voqealarni hayot bilan bog'lash uchun ko'chma ma'noli so'zlardan o'rinli foydalangan.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). "So'zning nutq tarkibida boshqa so'zlar qurshovida (kontekstda) o'z ma'nosidan tashqari anglatadigan qo'shimcha ma'nosi ko'chma ma'no hisoblanadi. Masalan, o't ishi – qovurmoq; qalbida ishq o'ti alangaladi" [2, 109]. Ushbu gaplarda o't so'zi ko'p ma'noli so'z sifatida qo'llanilmoqda: birinchi gapda olov, ya'ni o'z ma'nosida, ikkinchi gapda esa ko'chma ma'no ifodalangan. "Til va nutq sistemasi jarayonida so'zlarning ma'nolari turli kontekst va holatlarda semantik va stilistik qulayliklardan foydalanish imkoniyatini beradi, shu bilan birga so'zlarni o'z ma'nosi bilan birga ko'chma ma'noda qo'llash ham nutqning ifodaligini, ham tilning lug'at boyligini oshirish, shuningdek, inson tafakkur va fikrlashining asosiy manbasi hisoblanadi" [3, 31].

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Quyida misollar orqali ma'no ko'chish va uning turlarini romandagi vazifalarini ko'rib chiqamiz:

Oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi [1, 3].

Asardan olingan gapda metafora orqali ma'no ko'chganligining guvohi bo'lish mumkin. "Metafora ikki narsa yoki hodisa o'rtasidagi har qanday jihatdan o'xshashlikka asoslanadi. Metaforik ma'nolar insonning tashqi ko'rinishiga, jismoniy va ruhiy holatiga, tana a'zolari harakatiga, hayot bosqichlariga, kiyim-kechaklari va ularning qismlariga asosan yuzaga kelishi mumkin" [4, 138]. Ya'ni xazon (kuzda to'kilgan barglar) kasalmand so'zi vositasida bemor kabi tasvirlanmoqda, bu orqali ularning sust, jonsiz holatiga ishora qilingan. "Ingraydi" esa odatda odamga nisbatan ishlatiladi, bu yerdagi ma'no esa xazonlarga ko'chirilgan. Yuqoridagi parcha orqali asardagi dastlabki voqealar rivoji aynan kuz faslidan boshlanganligini tushunish mumkin.

Senlarning shovqin-suroningga ko'zim uchib turibdimi! [1, 54]

Gapda qo'llanilgan ko'chma ma'no ham metafora vositasida ko'chgan bo'lib, bevosita ko'zga bog'liq emas, balki xohish, intilish ma'nosining teskari, ya'ni kinoya, kesatiq mazmunida ishlatilgan. Ushbu gap Grigoriy obraziga tegishlidir. U Rossiyadan ko'chib kelgan va akasining qo'l ostida ishlayotgan edi. Bir kuni ko'p qavatli uylar atrofida to'y bo'layotgan paytida, bu holat uning dam olishiga xalaqit beradi, shunda u darg'azablik bilan bir chelak suvni pastga, ya'ni Shahnozaning ustiga to'kib yuboradi. Buni ko'rgan Rustam (asarning bosh qahramoni) chidab turolmay, u bilan yuqorida mushtlashadi. Grigoriy unga kuchi yetmasligini sezib, darhol kechirim so'raydi, lekin o'sha ondan boshlab uning qalbida

Rustamga nisbatan adovat hamda alamzadalik tuyg'usi uyg'onadi. Ko'chma ma'noda qo'llanilgan ibora esa ayni ma'noni ifodalagan.

O'qishdan ko'ngli muz bo'lib ketgan edi [1, 158].

Yuqoridagi gapda ham metafora orqali hosil bo'lgan ko'chma ma'noli so'zni ko'rish mumkin, ya'ni muz bo'lmoq – befarqlik, sovuqlik timsoli sifatida ishlatilgan. Bu epizodda Husanboy hamda rafiqasi Fotima (eshonning qizi) o'sha davrning og'ir qiyinchiliklariga duch kelishadi. Uyida noqonuniy tarzda diniy kitoblar saqlagan hamda xalqning ongini zaharlagan kabi tuhmatlar bilan Husanboyning tergov uchun olib ketishadi, ammo u hech qachon qaytib kelmaydi. Ana shu voqealardan keyin ularning qizi Qurbonoy ham a'lochi o'quvchilardan biri bo'lishiga qaramasdan, maktabda "xalq dushmanining qizi" degan nom oladi, maktabga borish va o'qishdan ham voz kechadi. Gapdagi ko'chma ma'noli ibora orqali uning ruhiy holatini obrazli tasvirlagan.

–Oyoq olishi qanday? Oldiga begonalar kelmayaptimi? [1, 173]

Navbatdagi gapda sinekdoxa vositasi orqali ma'no ko'chirilgan, ya'ni "oyoq olmoq" – hol-ahvol, yurish-turishini anglatmoqda. "Sinekdoxa "sinekdoh" – birga anglamoq deganidir. Butun orqali qism, qism orqali butunni ifodalash asosida so'zlardagi ma'no ko'chish usuli sinekdoxa deyiladi" [5, 963]. Bu yerda bir a'zo butun odamning harakati o'rnida ishlatilganligini ko'rish mumkin. Gap salbiy obrazlardan biri bo'lgan sobiq tergovchi Soat G'aniyevichning nutqiga xos. Keyingi voqealar rivojida Shahnoza Rustam o'lganidan keyin tushkunlikka tushib qoladi va uning qay tarzda o'lganligini bilishni xohlaydi. Soat G'aniyevich bu sirli o'limdan so'ng Shahnozaning hayotini, uyiga begona kimsalar tashrif buyurayotganini aniqlash maqsadida shubhalanib so'ragani ko'chirilgan ma'noli birlik bilan anglatilgan.

G'ing deb ko'rsin-chi, "xalq dushmani"ni himoya qilgan shubhali shaxs sifatida qiya bo'lib ketadi [1, 177].

Romandagi ushbu gapda ham metafora vositasi orqali ma'no ko'chirilgan bo'lib, "qiya bo'lish" – bu yerda bevosita tananing holati emas, balki ijtimoiy bosim, og'ir vaziyatni bildiradi. Ushbu epizodda, avval ta'kidlaganimizdek, Husanboyning uyini tintuv qilish uchun tergovchi Soat G'aniyevich rahbarlik qiladi. Uni tergovga olib ketishgandan keyin, rafiqasi Fotimaga Soat G'aniyevich tajovvuz qiladi. Ertalab qizi Qurbonoy uyqudan turganda, kechagi voqealarni eslolmaydi. Butun uydin onasini qidirayotgan paytida, onasining jasadini molxonadan topadi. O'sha voqeadan keyin hamma nimalar bo'lib o'tganini bilsa ham, hech kim Soat G'aniyevichga indolmaydi. Agar shunday qilgan taqdirda, darhol lavozimidan olib tashlangan bo'lardi va buning mohiyati ko'chma ma'noli birlik orqali ifodalangan.

Bir kuni Nazira yorildi [1, 179].

Yuqoridagi gapda ham metafora vositasi orqali ma'no ko'chirilganligini kuzatishimiz mumkin, ya'ni "yorilmoq" – bu yerda jismoniy harakat fe'li emas, balki gapirdi ma'nosida qo'llanilgan. Soat G'aniyevichning rafiqasi Nazira tunda ichidagi hamma gapni unga aytadi, ya'ni u tezroq ishdan bo'shashini, qilgan barcha ishidagi gunohlari hamda olgan qarg'ishlari uchun tavba qilishini yalvoradi, chunki bu kelajakda farzandlaridan qaytishini yaxshi bilar edi. Soat G'aniyevich esa bunga e'tibor ham bermaydi. Qo'llangan ko'chma ma'noli so'z ham aynan Naziraning xavotiriga ishora qilmoqda.

–E, uka! Shungayam ota go'ri-qozixonami? Bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi [1, 216].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Parchada metafora usuli orqali ko'chma ma'no hosil qilingan. Do'ppi – bosh kiyimi, bu yerda bosh – inson, do'ppi – yashash vositasi ma'nosida qo'llanilgan. Ushbu gap Rustamning akasi Ilhomga tegishli. O'sha vaqtda Rustam Afg'on urushidan uyiga eson-omon qaytib keladi, ammo uyiga kirganda uning fayzi yo'qolganini darhol payqaydi, chunki oilasi ikkala sigirini ham, yerining yarmini ham sotib yuborgan bo'ladi. Bundan Rustam taajjublanadi va nimalar bo'lganini so'raydi. Ilhom akasi esa bo'lgan voqealarni so'zlaydi, ya'ni otasi qamoqqa tuhmat bilan tushganini, uni chiqarib olish uchun uyidagi hamma narsalarni sotganini aytadi. Ibora orqali Ilhom taqdirga tan berganligini, barcha ishninig bekor ketganiga qaramasdan, ukasi va o'zini tinchlantirishga urinyotgan holatini anglash mumkin.

Bulutlar yer ustida uzoq charx uradi-da, achichiq-achichiq ko'zyosh to'kadi [1, 330].

Bu gapda bulutlardagi yomg'ir uning ko'z yoshlari bilan ifodalangan, ya'ni bulutlar insonga xos hislat orqali gavdalanitirilgan. Tasvir asarning so'ngida, ya'ni Rustam o'z joniga qasd qilish paytidagi holatini aks ettirgan. Uning boshiga tushgan qiyinchiliklar, oilasidagi, shaxsiy hayotidagi barcha muammolar unga sira ham tinchlik bermaydi va oxiri o'zini o'ldirish haqidagi fikrga keladi. Bu tasvirda ko'chma ma'no orqali ta'sirli ochib berilgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). So'ng so'z o'rnida shuni aytish mumkinki, ko'chma ma'noli so'zlar asarning badiiy qiymatini oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qilgan. Metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi ma'no vositalari orqali yozuvchi qahramonlarning ruhiy holatini, ijtimoiy hayotdagi murakkabliklar va zamonaviy jamiyatdagi muammolarni chuqur ifoda etadi. Ko'chma ma'noli so'zlar "Tushda kechgan umrlar" romanining g'oya va mazmunini ochishda beqiyos badiiy vosita vazifasini bajargan deyish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hoshimov. O'. Tushda kechgan umrlar –Toshkent: "Global Books". 2023. –B. 3, 54, 158, 173, 177, 179, 216, 330.
2. Uluqov. N. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: "Barkamol fayz mediya". 2016. –B. 109.
3. Juraqobilovna. H. O'zbek va fransuz tillarida metafora hodisasining o'rganilishi. O'zbekiston: til va madaniyat maqolalar jurnali. 2023. –B. 31.
4. Ergasheva. S. Metafora – madaniyatning ko'rsatkichi. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi ilmiy maqolalar to'plami. 2024. –B. 138.
5. Shermamatova. S. O'zbek tilida ma'no ko'chish usullari: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023. –B. 963.